

HUQUQSHUNOSNING NUTQ MADANIYATI

Farhodova Durdon Dilshodjon qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi “Sud-huquqiy faoliyat”

yo‘nalishi 1-bosqich 32-guruh o‘quvchisi

Telefon: +998979411100

Annotatsiya:

ushbu maqolada muallif nutq madaniyati, nutq odobi tushunchasi, uning umumiy madaniyatning bir unsuri, ijtimoiy hodisa sifatida shakllanishi hamda huquqshunosning nutq madaniyati, notiqning o‘zi nutqida rioya qilishi lozim bo‘lgan tavsiyaviy qoidalar haqida fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, nutq odobi, notiq, ijtimoiy hodisa, talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, grammatika, uslubshunoslik.

Аннотация:

в данной статье автор рассуждал о культуре речи, понятии речевого этикета, его становлении как элемента общей культуры, общественного явления, а также о культуре речи юриста, рекомендательных правилах, которых должен придерживаться в своей речи сам оратор.

Ключевые понятия: культура речи, речевой этикет, говорящий, социальное явление, произношение, ударение, употребление слов, грамматика, стилистика.

Abstract:

In this article, the author discussed the culture of speech, the concept of speech etiquette, its formation as an element of general culture, a social phenomenon, as well as the culture of speech of a lawyer, the recommendation rules that the speaker himself must adhere to in his speech.

Key concepts: speech culture, speech etiquette, speaker, social phenomenon, pronunciation, stress, word usage, grammar, stylistics.



Huquqshunosning nutq madaniyati haqida fikr yuritish barobarida, avvalo, nutq madaniyati, nutq odobi bilan bog‘liq umumiy tushunchalarga qisqacha bo‘lsa ham murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Nutq madaniyati, nutq odobi masalasida – 1) og‘zaki va yozma adabiy til me‘yorlari (talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me‘yorlashtirish (tartibga solish) muammolarini o‘rganuvchi bo‘limi¹sifatida tushunchalar keltiriladi.

O‘rta Osiyo va Yunoniston madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o‘ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya‘ni, va‘zxonlik, Qur‘onni tartib qilish bilan mushtarak holda so‘zning ahamiyati, ma‘nosi va undan o‘rinli foydalanish borasida ko‘p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai-nazardan qaralsa, “Nutq odobi”, “Muomala madaniyati” nomlari bilan yuritilib kelgan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortib kelgan: Demosfen, Suqrot, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘oriy, Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So‘fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e‘tibor berishga da‘vat etish bilan birga tilga, lug‘atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozdilar.²

Ma‘lumki, nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat, ilm-fan, texnika-texnologiyalar taraqqiyoti, madaniy va adabiy hayot yuksalishi bilan chambarchas bogliq holda taraqqiy etib boradi. Jamiyat a‘zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me‘yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi.

Nutq madaniyati tilshunoslikning tilni umumiy madaniyatning bir unsuri sifatida mukammallashtirish maqsadida tartibga solish muammolarini o‘rganuvchi nisbatan yosh sohasi bo‘lib, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o‘zgarishlar ta‘siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga odamlarni keng jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e‘tiborni kuchaytirishni talab qildi.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq_madaniyati.

² S.T.Rahimjonova. Qadimgi faylasuflarda nutq madaniyati va texnikasining shakllanishi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6632738>.



Nutq madaniyati, bundan tashqari, vaziyatga xolis izoh beruvchi hamda faqatgina zaruriy bo'lgan til uslublaridan foydalanishni talab etadi. Nutq odobi qoidalariga rioya etib, fikrini ifodalash uchun zaruriy bo'lgan nutqiy ifodalardan yetarlicha foydalanib, mahorat bilan so'zlagan kishini notiq deb ataladi. Mahoratli notiq bo'lish uchun esa kishidan bir necha nutq etikalariga amal qilish talab qilinadi. Ular quyidagilar:

- O'z fikrlarini tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazish jarayonida nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi til birliklarini tanlay olish;
- Og'zaki yoki yozma savodxonlik darajasining yuqori bo'lishi;
- Notiqning o'ziga ishonchi mustahkam bo'lishi kerak. Buning uchun esa notiq o'z nutqida olg'a suradigan fikrga to'la ishonch hosil qilishi lozim;
- Nutq to'liq isbot va dalillarga ega bo'lishi kerak;

Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini o'z sohasini bilish hal etadi. Agar notiq o'z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik san'atkor bo'lmasin, o'z tinglovchisini jalb etolmaydi.³

Insoniyat paydo bo'libdiki, so'z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr yetkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Notqlik, voizlik ana shunday san'at darajasiga olib chiqilgan ijtimoiy voqelik hisoblanadi. Zero, "Ritorika", "oratorlik", "xatoba" nomlari bilan ham yuritiluvchi mazkur san'at barcha davrlarda o'sha zamonning mafkurasiga xizmat qilib kelgan.

Notqlik san'ati, avvalo, kishining qobiliyati va iste'dodini rivojlantirishga qaratilgan bilim sohasidir va bu san'at qadim-qadimdan shaxsning aqlini charxlaydi va nutqiy mahoratini rivojlantirishga xizmat qilib keladi.

Tinglovchilarda muayyan fikr, hissiyot, jumladan, adolatparvarlik, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni uyg'otish notiqning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson hayoti mobaynida juda ko'p nutq va ma'ruzalar tinglaydi va albatta ulardan o'zi uchun zarur bilim va axborot oladi. Bu esa ayni chog'da, notiq va uning nutqi sifatiga bog'liq bo'ladi.

Ayrim manbalarda ravon va chiroyli nutq so'zlashning uch uslubi ajratib ko'rsatiladi, ya'ni bular:⁴

Birinchisi – o'zining tashqi ko'rinishidan bosiq va qat'iy mantiqiylikka asoslangan ko'rinish. Ushbu uslub berilayotgan ma'lumotlarning asoslanganligi va

³ O.M.Ravshanbekova Huquqshunosning nutq odobi. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Bilbao, Spain March 27th 2022 conferencezone.org. 295-bet.

⁴ Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. –89-90-betlar.



isbotlanganligi bilan ajralib turadi. Bunday uslub egalari o‘z fikrlash qobiliyatlari va go‘zal nutqi bilan tinglovchilarni o‘ziga jalb etadilar, ularning hissiy imkoniyatlari ikkinchi darajali bo‘lib qoladi.

Ikkinchisi – emotsional-hissiy uslub. Bu uslub egalari o‘z nutqida qiziqarli fikrlar bilan tinglovchilarni xursand qilish va kuldirishga intiladi. Bunday notiqlik uslubida yuksak hayotiy malaka, kuchli bilim va so‘z boyligi talab qilinadi. Mazkur uslubning xarakterli tomoni shundaki, fikrni tiniq yetkaza olish, ayrim hollarda o‘xshatishlardan ustalik bilan foydalanish, nutqning tushunarli darajada bo‘lishidir.

Uchinchisi – aralash uslub. Bu uslubda yuqorida ko‘rsatilgan ikkala uslubning ma‘lum xarakterli belgilari mavjud bo‘ladi.

Birinchi uslub akademik nutq so‘zlaganda, ikkinchisi esa ijtimoiy-siyosiy sohadagi notiqlik san‘atida ko‘proq qo‘llaniladi.

Nutq madaniyati va odobi huquqshunoslik sohasi vakillari uchun juda muhim hisoblandi. Zotan, sohaning qonun ijodkorligi, sud, prokuratura, advokatura, huquqiy profilaktika, huquqiy targ‘ibot kabi turli xil yo‘nalishlarida faoliyat olib boruvchi huquqshunoslarning asosiy qurollaridan biri ta‘sirchan nutq, san‘at darajasidagi notiqlik hisoblanadi. Ular ushbu vositalar orqali o‘zlarining mashaqqatli faoliyati davomida topgan dalillari, asoslari, xulosalari, hukmlari, haqiqatlariga boshqalarni ishontiradilar, ularning e‘tirofi va e‘zoziga erishadilar.

Huquqshunoslarning ishlari faqat jinoyatlarni ochish, hujjatlarni tayyorlash, qonunlarni tayyorlash kabi ishlar bilan bog‘liq bo‘lmay, balki, aholi orasida huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish, ma‘lum bir huquqqa doir tadbirda ajoyib nutq so‘zlash kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shunday vaziyatlarda o‘z-o‘zidan yuristlardan nutq odobiga amal qilish talab etiladi. Quyida esa yurist nutqi uchun qo‘yiladigan talablar keltirilgan:⁵

1. Beriladigan vaqtni hisobga olish.
2. Ma‘ruzaning maqsadi va asosiy g‘oyasini belgilab olish.
3. Auditoriyani e‘tiborga olish.
4. Nutq so‘zlashni mashq qilish.
5. Nima kiyishni oldindan rejalashtirish.
6. Nutq jarayonida juda ko‘p darajada huquqiy terminologiyalardan foydalanib yubormaslik.
7. Nutq paytida zarurat bo‘lmasa o‘zga til lug‘atlariga murojaat etmaslik.

⁵O.M.Ravshanbekova Huquqshunosning nutq odobi. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Bilbao, Spain March 27th 2022 conferencezone.org. 295-bet.



Nutq so‘zlashda, albatta, asosiy fikr bo‘lishi va jarayon unga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, auditoriya, ya’ni ma’ruza jarayoni ishtirokchilari bilan doimiy aloqa o‘rnatish lozim. Notanish auditoriyada notiq va tinglovchi o‘rtasida tinglovchiga ta’sir qilishga xalaqit beradigan “rasmiylik”, ishonchsizlik devori bo‘lishi ehtimoli yuqoriroq bo‘lishi tabiiy albatta. ushbu devorni yo‘q qilish uchun huquqshunos quyidagi vositalarga ega bo‘lishi lozim:

- samimiylilik, ya’ni bu notiqning tabassumida ifodalanishi ham mumkin;
- ishonchli ohang, bunda notiqning fikrlari o‘ziga ishonch va asosli dalillarga tayangan bo‘lishi lozim;
- tabiiylik;
- erkin harakat, bunda notiq qandaydir bosimni emas, erkinlikni his qilishi zarur.

Bir so‘z bilan aytganda, chiroyli nutqqa, nutq madaniyati va odobiga ega bo‘lish har qanday soha vakili bo‘lishidan qat’iy nazar o‘sha shaxsning jamiyatdagi hamda jamoadagi hurmatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq_madaniyati.
3. S.T.Rahimjonova. Qadimgi faylasuflarda nutq madaniyati va texnikasining shakllanishi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6632738>.
4. O.M.Ravshanbekova Huquqshunosning nutq odobi. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Bilbao, Spain March 27th 2022 conferencezone.org. 295-bet.
5. Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. –89-90-betlar.

